# XALQ DEPUTATLARI TERMIZ TUMANI KENGASHINING QARORI

191200, Termiz tumani At-Termiziy ko'chasi 1-uy, tel:(376)36-32-200, faks: (376)36-32-200

2022 - yil 19 - oktabr VI-46-151-8-117-K/22 Termiz tuman hokimligi

**2022-yil uchinchi chorak yakunlariga ko'ra jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi PQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha xalq deputatlari Termiz tuman kengashining 2021-yil 26-maydagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi 173/IV-28-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning tegishli bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari tuman Kengashinig 2021-yil 26-maydagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi 173/IV-28-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning tegishli bandlariga asosan 2022-yil to'qqiz oylik yakunlariga ko'ra jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman ishchi guruhining hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2022-yil to'qqiz oylik yakunlariga ko'ra jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar, ya'ni tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlar va tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotga ilovalar 1-ilovaga asosan;

2022-yil to'qqiz oylik yakunlariga ko'ra fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan

jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumot 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (G‘.Bo‘riyev) keltirilgan 1,2-ilovalarga muvofiq shakllarda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini hamda ushbu mablag‘lardan maqsadli va samarali ishlatilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Ochiq budjet” axborot portali hamda tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (L.Karimov), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Bo‘riyev)lar zimmalariga yukalatilsin.

**Termiz tumani Xalq deputatlari Kengashi raisi** **Urinov.SH.B**

Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining
2022 yil 19 oktabrdagi
VI-46-151-8-117-K/22-son qaroriga
1-ilova

| **T/r** | **Ko‘rsatkich nomi** | **Summa** (ming so‘m) |
|---|---|---|
| 1. | Yil boshiga qoldiq | 509000 |
| 2. | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga o‘tkazilgan mablag‘lar* | 6398865,9 |
| 3. | Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar** | 3587000 |
| 3.1. | Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to‘langan mablag‘lar | 3552820,2 |
| 3.2. | Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to‘lab berilmagan qoldiq mablag‘lar | 0 |
| 4. | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidagi qoldiq mablag‘lar | 2846045,7 |

Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining
2022 yil 19 oktabrdagi
VI-46-151-8-117-K/22-son qaroriga
2-ilova

| T/r | Bajarilgan tadbirlar nomi | Moliyalashtirilgan takliflar soni | ko‘rsatkichlar | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | o‘lchov birligi | miqdori | sarflangan mablag‘lar |
| 1. | Hududiy ichki yo‘llar | | umumiy uzunligi | | |
| 2. | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash | 3 | soni | 3 | 1 143 000,00 |
| 3. | Maktabgacha ta’lim muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 1 | soni | 1 | 797 000,00 |
| 4. | Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 1 | soni | 1 | 964 000,00 |
| 5. | Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | | soni | | |
| 6. | Ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash | 1 | umumiy uzunligi | 1 | 500 000,00 |
| 7. | Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish | | chiroqlar soni | | |
| 8. | Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish | | tadbirlar soni | | |
| 9. | Boshqa tadbirlar | 1 | soni | 1 | 148 820,00 |
| **jami** | | | **X** | **X** | **3 552 820,00** |

Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining
2022 yil 19 oktabrdagi
VI-46-151-8-117-K/22-son qaroriga
3-ilova

| T/p | Tadbirning xos raqami (ID) | Jami to‘plangan ovozlar soni | shundan | | | Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi) | Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so‘m) | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | onlayn ovozlar | oflayn ovozlar | SMS orqali | | Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraq | Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati | Tadbirni amalga oshirish qiymati* | Ajratilgan mablag‘lar | Bajarilgan ishlar uchun to‘lab berilgan mablag‘lar | Qoldiq mablag‘lar |
| 1 | 1120400023 | 2286 | 6 | 0 | 2280 | Surxondaryo viloyati Termiz tumani Qaxramon mahallasi Bunyodkor va Bunyodkor 1-berk ko‘chalarida joylashgan aholining aksariyati ichimlik suvi bilan ta’minlanmagan. Ushbu mahallada joylashgan 5-maktab yonida joylashgan artezian suvini chiqarish inshoati (bashnya) Bunyodkor 1-berk ko‘cha aholisini qisman suv bilan ta’minlaydi. Asosiy quvur ham ancha yil avval o‘tkazilgan bo‘lib, korroziya holati juda yuqori darajaga kelib qolgan. Tashabbusim shundan iboratki, Bunyodkor ko‘chasi bo‘ylab markazlashgan ichimlik suv ta’minotini yaratish va aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash. | 4,01723E+26 | 500 000 | 500 000 | 500 000 | 500 000 | - |
| 2 | 1120400017 | 2205 | 34 | 0 | 2171 | Termiz tumani Yangier mfydagi kvp binosini tamirlash. Yangi maxalla, axoli kup. | 4,01723E+26 | 990 000 | 990 000 | 964 000 | 964 000 | 26 000 |
| 3 | 1120400173 | 2182 | 51 | 0 | 2131 | Orol MFY binosini tamirlash | 4,01723E+26 | 150 000 | 150 000 | 149 000 | 148 820 | 1 180 |
| 4 | 1120400149 | 2165 | 3 | 0 | 2162 | 5- maktab derazalarini akfa qilish | 4,01723E+26 | 540 000 | 540 000 | 540 000 | 539 500 | 500 |
| 5 | 1120400204 | 2138 | 5 | 0 | 2133 | Termiz tuman 3-sonli maktabni pollariga relen to‘shash kerak | 4,01723E+26 | 226 000 | 226 000 | 226 000 | 225 000 | 1 000 |
| 6 | 1120400420 | 2106 | 12 | 0 | 2094 | Termiz tuman Xalq ta’lmi bo‘limiga qaragli 24-sonli maktabning atrofini o‘rash va joriy ta’mirlash | 4,01723E+26 | 381 000 | 381 000 | 381 000 | 378 500 | 2 500 |
| 7 | 1120400142 | 1962 | 5 | 0 | 1957 | Tumah markazidan 75-80 km olisda joylashgan "Gulbahor" mahallasida 15-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud bo'lib? umumiy tarbiyalanuvchilar sig'imi jami 66 nafar. va ushbu bog'cha to'liq quvvat asosida faoliyat yuritmoqda. 4000 ga yaqin aholi istiqomad qiladigan katta mahalla uchun 66 o'rinli bog'cha... ayni kunlargacha bog'chaga borayotgan bolalar soni 66 bo'lsa... ushbu bog'chaga borishga navbat kutayotganlar soni 150 atrofida... Maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan faol islohatlar zamirada... farzandini bog'chaga chiqish navbatini yillar davomida kutish? hatto bog'chani tanimasdan maktabga chiqib ketishi holati - farzandlarimiz kelajagi uchun "jinoyatdir"! | 4,01723E+26 | 800 000 | 800 000 | 800 000 | 797 000 | 3 000 |
| **Jami:** | | | | | | | | **3 587 000,00** | **3 587 000,00** | **3 560 000,00** | **3 552 820,20** | **34 179,80** |